



**MUHAMMAD YUSUF IJODIDAGI O'XSHATISHLAR VA ULARNING
VERBALLASHUVI**

*Namangan davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar fakulteti O'zbek tili va
adabiyoti yo'nalishi O'zb-Cu-25talabasi*

Erkinjonova Gulsanam

Ilmiy rahbari

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ibragimova Iroda Artikmashrabovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Yusufning asarlaridagi o'xshatishlar, obrazlar va obrazliliklarni tahlili yoritib beriladi

Kalit so'zlar: She'r, o'xshatish, ijod, qofiya, asar, nazm, nasr.

Marhamatning marvaridi bo'lmish Muhammad Yusuf, asli ismi Muhammadjon Yusupov zamondoshlarining fikricha XX asrlar boshlaridagi va XXI asrlar boshlaridagi eng iste'dodli o'zbek shoirlaridan biri bo'lgan. Shoir she'rlari Respublika matbuotida muntazam chop etilgani va asarlari o'zgacha ruhda, ajoyib tarzda yozilib, qalblarga yetib borgani, mashaqqatli mehnat qilgani uchun "O'zbekiston xalq shoiri" unvoni, "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangan. Biz Muhammad Yusuf ijodini nasrdagi O'tkir Hoshimov ijodi bilan o'xshash deb hisoblayman, negaki Hoshimov ham hayotda bor va bo'lgan voqealarni kitobxonga sodda va samimiy tilda turli xil o'xshatishlar orqali yetkazib beradi. Muhammad Yusuf ham xuddi shunday, faqat u nazmda ijod qilib, O'tkir Hoshimovniki kabi o'xshatishlarini aks ettiradi.

Muhammad Yusuf she'riyatida turlilik va tomonlilik bo'lib, u doim bir yo'nalish yoki mavzuga oid she'rlar yozmaydi, aksincha, turli yo'nalishlarda she'r yozadi. Masalan, ona, ota, qiz, vatan, sevgi, mehr-muhabbat va boshqalar kabi. "Ona vatan kuychisi" ning she'rlari chuqur ma'noga ega mazmun va mohiyati o'xshatishlarga boy tushunarli bo'lib, she'rlarining har bir misrasi bir olam mazmun kasb etadi.

Shoirning "Iltijo"(1988), "Uyqudagi qiz"(1989), "Halima enam allalari"(1989), "Ish kemasi"(1990), "Yolg'onchi yor"(1993), "Erka kiyik"(1995), "Osmonimga olib ketaman"(1998). Kabi o'nlab she'riy asarlari bo'lib, mazkur kitoblarga kirgan she'rlarda Muhammad Yusufga mansub bo'lgan avlodning eng oliyjanob va yuksak insoniy fazilatlari bilan birga yoshlik sururi, ishq va muhabbatning nafis navolari, o'zbekona, sodda, ayni paytda ezgu, bokira va betakror tuyg'u hamda kechinmalari o'zining yorqin



ifodasini topgan. Soʻzning imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanish, musiqiy ravonlik, tuygʻular tiniqligi, samimiylik va mayinlik, ruhiyat manzaralarini loʻnda va yakdil ifodalay bilish Muhammad Yusuf sheʼriy uslubning yetakchi xususiyatlaridir. Uning qalamiga mansub aksariyat sheʼrlar taniqli xonandalar tomonidan ijro etilmoqda.

Shoirning oʻlimi sheʼriyatimizga juda katta taʼsir oʻtkazdi. U oʻz davrida oʻzbek sheʼriyatining yirik namoyondasi edi, shuning uchun ham uning oʻlimi oʻzbek kitobxonlarini seskantirib qoʻydi. Oʻz oʻlimini sezgandek, shoir vasiyat tariqasida sheʼr yozib qoldirgan. Bu sheʼrning nomi yoʻq, ammo uni shoir oʻlimidan 1-2 soat oldin yozgan deb taxmin qilinadi.

Muhammad Yusuf sheʼrlarini turli qoʻshiqlarda eshitamiz. Shoir hayot boʻlgan chogʻlarda oʻzi aytyotgan paytda yozdirib olinganlarini esa ijtimoiy tarmoqlarda, televizordagi ayrim koʻrsatuvlarda kuzatamiz. Mustaqilligimizni, hurligimizni, erkinligimizni, madh etgan sheʼrlarini mashhur xonandalarimiz tomonidan rasmiy, xalqaro tantanalarda eshitamiz. Shu xonandalarning: “Bunday shoir Oʻzbekistonda yagona edi... Haqiqiy insoniy shoir Muhammad Yusuf edi...”-degan gaplari tez-tez qulogʻimiz ostida jaranglaydi.

Adibning ijodiga nazar soladigan boʻlsak, “Sanam” sheʼrida mashuqaga ochiqdan-ochiq murojaat qiladi. Yorni goʻzal oʻxshatishlar orqali tengi yoʻqligi, agar sohibjamol boʻlmasa xattoki osmon ham maʼnosiz ekanligini taʼkidlaydi:

Sen oʻzing shamsu hilol,
Kuydurgu yor, sohibjamol.
Sensiz ul osmunda yoʻq,
Maʼno sanam, maʼno sanam.

Sheʼrning keying misralarida dunyoda tengi yoʻq goʻzalni koʻzlarini Jayron koʻzlariga oʻxshatib, oʻz husniga oʻzi hayronligini goʻzallikda zebolar bilan tenglasha olishini, bu dunyoda tengi yoʻq sohibjamol shu yor ekanligini namoyon etadi:

Koʻzlari Jayron oʻzing,
Oʻz husniga hayron oʻzing.
Tengi yoʻq, timsoli yoʻq,
Zebo sanam, zebo sanam.

Keyingi misralarda shoir muhabbatning shirin mojarolarini gʻavgʻo deb, sevgini oʻzini esa sahroga, oʻzini Majnunga yorni esa Layliga oʻxshatadi:

Boq, ajab gʻavgʻodamiz,
Sevgi degan sahrodamiz.
Qays oʻzimi sen ekan,
Layli sanam, Layli sanam.



Yozuvchi nafaqat “Sanam” she’rida, balki boshqa barcha she’rlarida ham o’xshatishlardan maromiga yetkazib, o’rni-o’rnida foydalangan. Masalan, “Qizlar qo’shig’i” she’rida dunyoning ko’rki qizlarligi, ularning ko’zlari shahloligini ta’kidlab, qizlarni Zuhrolarga, o’g’illarini esa Tohir va Majnunlarga qiyos etgan.:

Tohirlarni Tohir qilgan Zuhrolar,
Qiz tufayli butdir rizqu-u ro’zingiz.
Qay o’g’ildan ayting kamdir qizingiz.

Bundan ko’rinib turibdiki, shoir insonlar va ularning hislatlarini turli narsalarga, balki o’tmishda o’tgan mard-jasur paxlavonlarga, ilmi shaxslarga ishq yo’lida mardlik ko’rsatgan insonlarga ham o’xshatib, she’rlariga etika va estetika qo’shgan.

Shoir oddiy holatni ham chiroyli qilib, mubolag’a, o’xshatish, turli qochirimlar orqali boyitib, kitobxonga boshqacha tarzda tushuntirib beradi. Muhammad Yusufning she’riy to’plamlari muqaddimasiga “Aslida she’r darddan yaraladi. Shoirga esa dard kimga tegishli ekanining ahamiyati yo’q. U butun dard-u hasratlarni his etib, gardanida barcha iztiroblarini ko’tarib yuradi”, - degan misralar bitib qo’yilgan. Bundan ayon bo’ladiki, shoir she’rlarini darddan yaratib, anashu dardni birinchi bo’lib o’zi his qilib keyin yozgan ekan.

Xalqimizda: “Muhammad Yusuf xalqona shoir”, degan gap bor. Uni o’zbekning har bir farzandi yaxshi ko’radi, yurakka yaqin oladi. Shundanmi, qalbini, tuyg’ularini misralarga solgan shoirga vafotidan so’ng ham ehtirom ko’rsatib kelinmoqda

Shoir “Sevgi bu...” deb nomlangan she’rida sevishni asli kechirish ekanligini ta’kidlab, ozgina narsaga ham ayrilib, ikki ko’ngilni azoblab yashashdan ko’ra birga bo’lib, kechirib, butun umr baxtli yashashni targ’ib etadi. Shu bilan birga shoir: “Bu dunyoda oddiy gul, quyosh va yalpizlar bor ekan meni senga bo’lgan sevgim o’zgarmaydi, sen yonimda sodiq bo’lib tursang bo’ldi”, - deb aytadi

Sevmoq bu-
Kechirmoq degani asli,
Toki bu dunyoda quyosh bor, gul bor.
Yalpizlar gullagan shu bahor fasli
Sodiq hamdam bo’lgin sen menga, dilbar.

Yana bir she’rida shoir bu dunyoda bevafo ko’p ekanligi, xatto o’ziga ham bir yelkadosh, mehribon do’st yo’qligi, o’zining ham qizlar kabi bag’ri qon ekanligi, bu dunyoda muhabbat yo’qligini, yig’lamasdan sabr qilish kerakligini chiroyli misralar orqali yoritib bergan:



Qo'y, yig'lama, mening jon singlim,
Men ham bag'ri qon, singlim,
Menga ham yo'q mehribon, singlim,
Bevafo ko'p ekan dunyoda.
Muhabbat yo'q ekan dunyoda...

Xulosa qilib aytganda, hamma ham she'r yoza oladi, hamma ham shoir bo'la oladi, ammo Muhammad Yusufdek maromiga yetkazib, yuraklarga yetib boradigan qilib, hech kim yoza olmasa kerak. Shoir she'rlargiga har tomonlama yondashadi va qadriyatlarimizni, milliyligimizni, millatimizni, tilimizni asrab-avaylashga, ilm olishga undaydi. U o'xshatishlar orqali inson tuyg'ularini tabiat va hayot hodisalarini jonlantiradi, uning she'riyati tabiiy va samimiy ifoda bilan ajralib turadi. U so'zlar va tasvirlar o'rtasida qiyosiy bog'lanishlarni yaratadi, shuningdek, hissiyotlarni kuchaytiradi. Yuqorida aytganimizdek, o'zbek she'riyatiga katta hissa qo'shgan shoirlarning biri Muhammad Yusufdir. U nafaqat muhabbat kuychisi, balki mustaqillik, hurlik, poklik, adolat, mehr kuychisi desak mubolag'a bo'lmaydi. Amir Temur, Navoiy, Ulug'bek Mirzolar vafot etgan bo'lsada, asrlar davomida yashab kelayotgani kabi shoir Muhammad Yusuf ham she'riyatga va adabiyotga qo'shgan hissasi sababli asrlar davomida yashaydi deya qo'rqmasdan ayta olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ko'nglimda bir yor: she'rlar/ Muhammad Yusuf.-Toshkent: "Nurafshon-kitob-ta'minot", 2021.-48b.
2. Muhammad Yusuf. "Ko'nglimdagi yor". Toshkent: G'afur g'ulom nomidagi NMIU, 2001.
3. "Muhammad Yusuf sara she'rlar" to'plami 2026-yil 16-yanvar asl nusxa
4. <https://sherlari.uz/muhammad-yusuf-eng-sara-sherlari-to`plami>.